

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON  
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

|  |      |
|--|------|
| <b>I.O.Raxmonova</b>   |      |
| Ingliz tilidagi "Food"/"Oziq-ovqat" konseptining milliy xususiyatlari.....   | 1101 |
| <b>Sh.G.Akbarova</b>   |      |
| A comparative analysis of the original and the translations of the essay "The stranger" (L'etranger) by Alber Camus..... | 1107 |
| <b>Sh.G.Akbarova</b>   |      |
| Alber Kamyu asarlari tarjimasiga mazmun va mohiyat ta'siri.....  | 1111 |
| <b>Sh.G.Akbarova</b>   |      |
| О некоторых тайнах Французских артиклей.....   | 1115 |
| <b>D.A.Ganieva, G.S.Mirzayeva</b>  |      |
| Realialarning madaniy konnotativ xususiyatlari.....  | 1118 |
| <b>G.S.Mirzayeva</b>   |      |
| Lingvokulturemalar tarjimasida translitratsiya usuli.....  | 1122 |
| <b>N.K.Abbasova</b>  |      |
| Formation of foreign-language communicative competences in language learners using english proverbs and sayings.....     | 1125 |
| <b>A.A.Qayumov, A.B.Kosimova</b>   |      |
| Jahon adabiyotida drabllarning o'rganilishi.....   | 1130 |
| <b>D.I.Mirzayeva</b>   |      |
| O'xshatish uslubiy kategoriyasining semantik-stilistik xususiyatlari.....  | 1134 |
| <b>D.A.G'aniyeva, S.Yaxyoyeva</b>  |      |
| Abbreviatsiya so'z yasashning samarador usuli sifatida.....  | 1137 |
| <b>Sh.B.Dushatova</b>  |      |
| Unveiling implicit meaning: exploring the subtext of euphemisms.....   | 1140 |
| <b>Sh.B.Dushatova, X.J.Xoliqova</b>  |      |
| The psychology of euphemisms: why do we use them?.....   | 1144 |
| <b>Z.M.Xalilova</b>  |      |
| Kognitiv tilshunoslik zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi sifatida.....  | 1148 |
| <b>A.S.Toshmatov</b>   |      |
| Beyond grammar: building confidence and clarity in student writing (higher education).....                               | 1153 |
| <b>N.X.Qurbonov</b>  |      |
| The positive effects of video games in teaching english to beginner-level learners.....                                  | 1160 |
| <b>D.E.Normatova</b>   |      |
| Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati.....  | 1166 |
| <b>D.R.Axmadaliyeva</b>  |      |
| Talabalarning ingliz tilida nutqiy kompetensiyasini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish metodikasi.....         | 1171 |
| <b>N.Sh.Abdullayeva</b>  |      |
| Talabalarning xorijiy tilda kasbiy muloqotini o'rgatish jarayonida dlii texnologiyalarining integratsiyasi.....          | 1177 |
| <b>S.A.Aliyeva</b>   |      |
| Geortonimlar bilan bog'liq perifrazalar tadqiqi.....   | 1182 |
| <b>S.A.Aliyeva</b>   |      |
| Turli tizimli tillarda geortonimik indikatorlarning leksik-semantik xususiyatlari.....                                   | 1185 |
| <b>M.A.Axundjanova</b>   |      |
| A cooperative small group methodology in teaching english for esp students.....  | 1189 |
| <b>R.M.Shukurov, F.B.Abduraximova</b>  |      |
| Turli tizimli tillarda so'z yasalishining umumiy va farqli jihatlari.....  | 1193 |
| <b>F.B.Abduraximova</b>  |      |
| O'zbek tilida mubolag'a va uning darajalanishi.....  | 1203 |
| <b>Sh.F.Latipov</b>  |      |
| Unveiling the significance of linguistic lacuna in foreign language teaching.....  | 1208 |
| <b>L.T.Galimullina</b>   |      |
| Semantic peculiarities of english phraseological synonyms with the component of precious stones and metals.....          | 1210 |



UO'K: 811.512.133'373

**O'ZBEK TILIDA MUBOLAG'A VA UNING DARAJALANISHI****ГИПЕРБОЛА И ЕЁ КЛАССИФИКАЦИЯ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ****HYPERBOLE AND ITS CATEGORIZATION IN UZBEK LANGUAGE****Abduraximova Feruza Boxadirovna**

Farg'ona davlat universiteti Ingliz tili o'qitish metodikasi

**Annotatsiya**

Tilning stilistik vositalarini o'rganish tilshunoslikning dolzarb va muhim masalalaridan biridir. Har bir stilistik vosita nutq jarayonida nominativ vazifani bajarish bilan birgalikda, uslubiy vosita ham bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada mubolag'a va uning turlari tahlil qilingan bo'lib, badiiy asarlardan misollar keltirish orqali tahlil qilingan.

**Аннотация**

Изучение стилистических средств языка – один из актуальных и важных вопросов языкознания. Каждое стилистическое средство в сочетании с номинативной задачей в процессе речи может быть и стилистическим средством. В этой статье анализируется преувеличение и его типы, приводя примеры из литературных произведений.

**Abstract**

The study of stylistic means of language is one of the pressing and important issues of linguistics. Each stylistic tool, in combination with the performance of a nominative task in the process of speech, can also be a methodological tool. This article analyzes exaggeration and its types, analyzing them by giving examples from literary works.

**Kalit so'zlar:** stilistik vosita, mubolag'a, tablig', ig'roq, g'uluv.**Ключевые слова:** стилистическое средство, гипербола, табулг, иарок**Key words:** stylistic device, hyperbole, tablig', ig'roq, g'uluv.**KIRISH**

Til stilistikasining qamrovi keng bo'lib, u tilning barcha stilistik sistemasini tekshiradi. Stilistika tilning sistem tizimidan tashqari, tilning yozma va og'zaki shakllarini shuningdek adabiy va so'zlashuv nutqini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari stilistika til vositalarining to'g'ri tanlangan yoki tanlanmaganligini aniqlash, shu bilan birga ularni to'g'ri qo'llash yo'llarini ham belgilab beradi. She'riy san'atlar tilshunoslik sohasini ham adabiyotshunoslik sohasini ham o'rganish ob'yektidir. Hozirgi paytda she'riy san'atlar tilshunoslik aspektida ham tadqiq etib kelinmoqda. Chunki ularni yuzaga chiqaruvchi vosita - til va tilning imkoniyatlaridir. Tilda giperbola ya'ni mubolag'a tushunchasi mavjud. Biz mubolag'a badiiy tasvir vositasini yoritishga harakat qilib ko'ramiz. Mubolag'a (giperbola) – grekcha hyperbole narsa, yoki hodisaga hos xususiyatni o'ta oshirib, mahovat qilib tasvirlash. Mubolag'a obrazni bo'rttirishga va shu yo'l bilan asarning ta'sir kuchini oshirishga hizmat qiladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mubolag'aning tarixiga nazar soladigan bo'lsak uning ilk ildizlari qadimgi Grek davriga borib taqaladi. Aristotelning "Poetika" asari biz uchun Gretsiyaning klassik davriga mansub bo'lgan, badiiy so'z san'ati yoxud poeziya nazariyasi masalalarini tartibli bayon qilishga bag'ishlangan yagona manba bo'lib qoladi. Aristotel o'zining "Poetika" asarida tragediyani turlarga bo'lar ekan, aqlga sig'maydigan narsa hayrat qo'zg'otishini, ajoyib narsa esa ko'ngilli bo'lishini va binobarin, bu narsalar poeziyada o'zini oqlaganini ta'kidlaydi. Syujetida ajoyibotlar, fantastika, u dunyodagi, Aiddagi voqealar tasvirlangan tragediyalarni e'tirof etadi. Boshqa o'rinda bu san'atda yolg'onga yo'l qo'yish mumkinligi haqida mulohaza yuritadi.[1;86.] Shuningdek bu asarda "Poeziyada tabiiy narsani odam ishonmaydigan qilib tasvirlashdan ko'ra g'ayritabiiy narsani ishonarli qilib tasvirlash

yaxshiroqdir,-deydi Aristotel. U qadimgi zamonning mashhur tragik shoiri Agafonning "Hayotda g'ayritabiiy narsalarning ko'p sodir bo'lishi ham tabiiydir" degan fikriga asoslanadi. "[1;141-142.]

Mumtoz adabiyotimiz tarixida she'riy san'atning qimmatli baytda yaratilgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, betakrorligi bilan ham belgilanadi. Alisher Navoiy o'z asarlarida mubolag'a san'atidan unuymli foydalanib, badiiy timsol xususiyatlarini yaqqolroq nomoyon bo'lishiga, o'quvchining ko'z oldida yorqinroq gavdalanishiga erishganini guvohi bo'lishimiz mumkin:

*Mehr emas, ohim o'tidin ko'kka yetmish bir sharar,  
Ayb emastur gar desam: "Dam ursam aflok o'rtanur"*[6;9.]

baytida oshiqning sevgilisi hajrida chekkan iztiroblari g'oyatda kuchaytirib tasvirlangan: ko'kdagi quyosh oshiq yerda chekkan oh o'tining bir uchquni emish. Bu xil bo'rtirilgan tasvir tufayli oshiq qiyofasi, ruhiy holati ichki olami, qalbida mavj urgan ehtiroslari ta'sirchan, jozibali ifodalangan. O'quvchi albatta bu xil tasvirning shartli ekanini his etadi, uning vositasida yoridan ayrilgan inson kechinmalarining eng yuqori darajasini aqlan anglaydi hamda oshiq qalbining iztiroblari haqiqatdan nihoyat darajada kuchli ekaniga ishonch hosil qiladi.

Shuningdek, Xorazmiy ushbu baytlarda, mahbubani  
*Qading sarvu sanobardek, beling-qil,  
Vafo qilg'on kishilarga vafo qil* [5;5.]

deb tasvirlar ekan, qadning sarvu sanobarga qiyoslanishi mantiqan asoslangan, ya'ni yor qadining to'g'riligi bilan sarv va sanobar daraxtlarining tikligi o'rtasidagi o'xshashlik hayot haqiqatiga to'g'ri keladi. Shoir mahbuba qomatini majnuntolga o'xshatsa, ana shu haqiqat buzilgan bo'lardi, zero tiklik jihatidan tasvirlanayotgan ikki narsa o'rtasida muvofiqlik saqlanmagan bo'lar edi. Ijodkor sevimli mashuqa belini noziklik jihatidan qilga qiyoslaganda ham hayot haqiqatiga zid bormaydi. Chunki ushbu mubolag'ali tasvirda ham bel va qil tushunchalari o'rtasida mantiqiy muvofiqlikka rioya qilingan.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Alisher Navoiy she'riy asarlardagina emas, balki nasriy asarlarida ham badiiylilik yuksak darajada tasvirlangan. U o'z fikrlarini ravon, ta'sirchan, obrazli ifodalash uchun turli xil badiiy tasvir vositalaridan foydalanadi. Umrining so'nggi yillarida Navoiyning sog'ligi anchagina yomonlashadi. Bunday holatda hayoti davomida yozgan lirik she'rlarini to'plab, ularni islox qilib, to'rt devon tuzish oson ish bo'lmay, shoirdan ulkan mehnat va katta mas'uliyatni talab qilar edi. Buni yaxshi anglagan shoir shu davrdagi ruhiy holatini quyidagicha tasvirlaydi: "... *agarchi za'fimg'a quvvat imkoni zohir bo'luptur, ammo hanuz buzug' koshonamdin chiqarg'a qo'pmaq tilasam, osilg'an idbori ankabut torlari dastgirim bo'lub madad yetkurmaguncha, tebranmakka tobu tavon va harakatqa maqdur, balki imkon yo'qtur, pashsha yuz pili damon torta olmag'an yukni nechuk tortqay, batxasiskim, majruhu ranjur dag'i bo'lg'ay, mo'rcha ming sheri jayon qila olmag'an ishni nechuk qila olg'ay, xususankim, bemoru sihat tariqatidin mahjur dag'i bo'lg'ay*".

Navoiy o'z asarlarida, jumladan, debochalarida ham mubolag'a san'atidan mahorat bilan foydalanadi. Jumladan yuqoridagi parchada ham mubolag'adan o'zining keksalik paytidagi ruhiy holatini, kechinmalarini real va ta'sirchan ifodalash uchun foydalanadi. Shoir shu davrlarda keksalikdagi quvvatsizlik va xastaliklar tufayli shunchalik zaiflashadiki, go'yoki o'rgimchak torlari madad yetkazmasa, o'rnidan turishga ham, harakat qilishga ham imkon va quvvat yo'q. Bemorning o'rgimchak torlariga tirmashib o'rnidan qo'zg'alishi juda chiroyli mubolag'ali tasvir namunasidir. [4;144]

Shuningdek A.Navoiy o'zining "Layli va Majnun" dostonidan quyidagi starlarida mubolag'adan ustalik bilan foydalanganini ko'rsak bo'ladi:

*Tirnoqlami chu yuzga urdi  
Tirnoq-tirnoqcha yerlar o'ydi.*

Bu satrlarda Laylining hayot bahori so'ngani tufayli Majnun oshiqning iztirobli holati qanchalik kuchliligi bo'rttirib tasvirlangan. Laylining dog'ida hatto yerni tirnoq bilan o'yilgani mubolag'alashtirib tasvirlangan.

Chunonchi, Navoiyning:  
*Orazin yopqoch ko'zimdan to'kilur har lahza yosh,  
O'ylakim paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh-*

## TILSHUNOSLIK

satrlari bilan boshlanuvchi g'azaliga mavlono Lutfiy o'zining butun bir g'azallar devonini almashtirishga tayyor ekanini aytib, mubolag'ali o'xshatishlarga boy bo'lgan bo'lgan g'azalga yuksak baho bergan. Navoiy bu baytda yorining orazini (yuzini) yopishini quyoshning botishiga, sohibjamol visolidan mahrum bo'lib, to'kkan ko'z yoshlarini quyosh botganda, osmonda paydo bo'ladigan yulduzlarga o'xshatadi, shunday qilib, to'kilgan ko'zyoshlarini yulduzlar singari hisobsiz demoqchi boladi. [8;120.]

Mubolag'a o'quvchining tasavvur olamiga asoslanadi. Tasvirlanayotgan obyektning holati, harakat va sifat belgisi o'quvchining tasavvur olamiga sig'dirganichalik bo'rttirilishi mumkin. Tasaavvur olamiga sig'magan mubolag'a o'quvchi uchun o'z ahamiyatini yoqotadi va u hayot haqiqatiga mos kelmaganligi sababli qiziqishni uyg'otmaydi. Alisher Navoiy qalamiga mansub:

*Gul yuzung hajrida chiqsa o'tlug' ohim gohlar,  
Ko'kta gulnoriy bulutlardek kezar ul ohlar*

baytini o'qigan o'quvchi tasavvurida avvalo ko'kda asta suzib borayotgan oq bulutlar paydo bo'ladi, so'ng ular gulnori-qizg'ish bulutlarga aylanadi. O'quvchi ushbu qizg'ish bulutlarning oshiq ohlari ekaniga diqqat qiladi va bu tasvirning shartli ekanini anglab yetadi. Shoir qo'llagan mubolag'a lirik timsol kechinmalarining kuchaytirilgan ifodasi ekaniga ishonch hosil qiladi. Tasvirning mukammalligi, ishonchiligi, go'zalligi uning diliga zavq bag'ishlaydi, o'quvchi beixtiyor buyuk shoirning badiiy kashfiyoti oldida lol qoladi, hayratlanadi, mahoratiga tahsin aytadi. Ogahiyning:

*Ohimdan uchib havog'a tog'lar  
Yer yuzi sarosar o'ldi homun*

baytidagi mubolag'a o'quvchining tasavvur doirasiga sig'ishi shubhaliroq, chunki hech qaysi inson tog'larning havoga uchishini ko'z oldiga keltira olmaydi. Shuning uchun ham bunday tasvirning ta'sir kuchi zaif bo'ladi. [5;9.]

Mubolag'a og'zaki nutqda ham, folklor asarlarida ham yozma adabiyotda ham ko'p uchraydi. Masalan, "Semrug' yoki Parizod va Bunyod" dostonida shoir Hamid Olimjon folklorga xos mubolag'alarni qo'llaydi. Chinorning kattaligini - "*chinor shoxi bulutlar orasida ko'rindi*", Semrug'ning kuchliligini - "*changalida zo'r arslon, tumshug'ida botmon don*", daxshatli devni - "*devning boshi-oyog'i o'rmonni tutib ketdi, sig'may chetga ham o'tdi*" mubolag'alari bilan ifodalaydi. [2;342.]

Shoir G'ofur G'ulom "Xalq otlandi" she'rida o'zbek jangchilarining bahodirligi haqida to'xtalib:

*"Yuragida yer titrar, o'kirsa osmon,  
Bu safda arslonlar keradi o'mrov"* o'z she'rlarida mubolag'adan foydalangan.

Mubolag'aning me'yori va undagi tasvirning hayot haqiqatiga mutanosibliigi jihatida 3 turga bo'linadi: **tablig', ig'roq, g'uluv.**

Tablig' aqlan ishonish mumkin bo'lgan hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lgan mubolag'a turi. Alisher Navoiyning "Kelmadi" radifli g'zalidagi

*Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,  
Ko'zlarimga kecha tong otquncha uyqu kelmadi* [5;10.]

baytining ikkinchi misrasida visol va'dasini bergan go'zalning kelmagani oqibatida oshiqning kechasi bilan uxlamay chiqishi oddiy hayotiy voqea bo'lmay, mubolag'ali tasvirdir, chunki shunday hollarda hamma oashiqlar ham uxlamay chiqadi deyish xato bo'lar edi. Lekin bu mubolag'ali tasvirni, ya'ni oshiqning tuni bilan uxlamay chiqishini aqlan tasavvur qilish ham mumkin, bunday hodisalar oz bo'lsa-da hayot haqiqatiga to'g'ri keladi va yuz berib turadi. Hayot voqeligini shu tarzda biroz bo'rttirib tasvirlash mubolag'aning birinchi darajasi hisoblanadi. Shuningdek,

*Ey sabo, holim borib sarvi xirmonimg'a ayt,  
Yig'larimni shiddatin gulbargi xandonimg'a ayt* [8;120]

ushbu baytda keltirilgan oshiqning yor vaslida hijroni mubolag'ali tasvir orqali o'z ifodasini topgan.

"Farhod va Shirin" dostonidagi  
*O'pub ul bodpolaming ayog'in,  
Tushub yo'lg'a tutib ikki qulog'in* [5;10.]

baytida Shirinning o'zi qurgan ariqqa suv ochilishini ko'rmoq uchun kelishidan xabar topgan Farhod o'z sevgilisi oti tuyoqlari ovozini eshitish uchun yo'lga quloq tutadi. bu holatda mubolag'ali

tasvirni ko'rish qiyin emas. Ammo bu turdagi bo'rttirish ham hayot haqiqatiga zid bormaydi. Birovni orziqib kutgan kishining yo'lga intizorlik bilan termilishi hayotiy voqelik. Shuning uchun ham bu tasvirni tablig'ga misol tariqasida ko'rasatish mumkin. Shuningdek, "Farhod va Shirin" dostonidagi Farhodning qaroqchilar bilan jang manzaralari tasvirlangan lavhalarda ham mubolag'aning shu turidan foydalanilgan. Farhodning xatti-harakati kuchaytiribroq tasvirlanganiga qaramay (chunki uning jasoratiga har qanday yigit ham jur'at qilavermaydi), uning mardligi bizni ishontiradi, yoy o'qi bilan qaroqchilarning kemalarini yondirib yuborishiga aqlimiz ham bovar qiladi, bu ish haqiqatdan ham inson qo'lidan keladi.

Mubolag'aning ikkinchi darajasi **ig'roq** deb ataladi. belgi, sifat yoki harakatni inson hayoliga sig'dirsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo'lmagan tarzda tasvirlashdir. "Farhod va Shirin" dostonida Shirinning oti oyoqlari chirmashib yiqilay degnada, Farhod borib otni ko'tarib olishi voqeasi tasvirlanadi. Shoir yozishicha:

*Chu oshiq ongladi qilg'och taammul,  
Ki yeldin tushkudekdur yer uza gul.  
Yer o'pmaklikka majnundek xam o'ldi,  
Quyosh ostida gardundek ham o'ldi.  
Ko'tardi orqasiga bodponi,  
Nechukkim badpo ul dilraboni,  
...Chu ikki-uch yig'och gom urdi shaydo,  
Bo'lib olinda qasru havz paydo,  
Qadamni qo'ydi qasr ayvoni sori,  
Salomat raxshi birla shahsuvori [5;11.]*

Farhodning 1,5-2 km yo'lni ot va Shirinni ko'targan holda bosib o'tishini aqlan qabul qilish mumkin bo'lsa ham, bunday voqeaning hayotda yuz berishi mumkin emasligi yaqqol sezilib turibdi. Bunday tasvirlar ko'pincha romantik obrazlarga va satirik portretlarga mos bo'lib tushadi. Farhod obrazini tasvirlashdagi mubolag'a va bo'rttirishlar romantik obrazga hos favquloddalik bilan izohlanadi.

Mubolag'aning uchinchi darajasi **g'uluv** deb ataladi. Inson aqlan va hayolan tasavvur qila olmaydigan va hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmaydigan qilib tasvirlash usuli. Ba'zida mubolag'a ig'roq chegarasidan ham chiqadi, aql va mantiqning odatdagi talablari doirasiga sig'may qoladi va muayyan belgi, holat, sifat, yoki harakatlarni shu xil tasviri yuzaga keladi. Bunda shoir o'quvchini ishontirish maqsadini ko'zlamaydi, ammo bu xil badiiy manzaralartasvirlanayotgan belgi, sifat, holat yoki harakatning eng yuqori darajasi haqida tasavvur hosil qila oladi, tasvirning noyoblighi esa o'quvchiga estetik zavq bag'ishlaydi. Shuning uchun shoirlar va yozuvchilar bu xil mubolag'adan unumli foydalanganlar:

Alisher Navoiyning  
*G'amingdin duri maknundek, sirishkim oqli Jayhundek,  
Muzayyan qildi gardundek jahonni ashki g'altonim. [3;24.]*  
Shuningdek,  
*Har qizil gulkim, yuzung shavqida olib isladim,  
Yetkach ohim shul'asi oni sarig' gul ayladim [5;11.]*

baytida mubolag'aning g'uluv drajasi qollanganligini ko'rishimiz mumkin. Zero, shoir tasviricha, oshiq o'z sevgilisining qizil yuzini sog'inib qizil gulni olib hidlar ekan, ohi shu'lasidan u sarig' gulga aylanibdi. Tasvirlanayotgan ushbu hodisani aqlan ham qabul qilolmaymiz, ya'ni qizil gulning inson ohi bilan sarig' gulga aylanishiga aqlimiz bovar qilmaydi ham, bu kabi hodisa hayotda yuz berishi ham mumkin emas. Ammo lirik qahramon holatini shu tarzda borttirib tasvirlagan shoir o'quvchini oshiq kechinmalarining naqadar kuchli ekaniga ishontira oladi. Hayotiy bo'lmagan hodisa ham uning tasavvurida haqiqatga aylangandek bo'ladi. Navoiyning qalamiga mansub bo'lgan:

*Ishqing o'tin gar Navoiy desakim aylay raqam,  
So'zidin kuyar qalam, qurir qaro, erur davot [5;11.]*

baytini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu misralar ham g'uluv asosiga qurilganini ko'ramiz. Zero, so'zdan qalamning kuyib, siyoh qurib, siyohdonningerishiga aqlimiz ham bovar qilmaydi, bunday holatlar hayotda ham yuz bermaydi. Lekin o'quvchi bunday holatlarni hayolan tasvvur eta oladi,

## TILSHUNOSLIK

shu tufayli bu xil tasvirdan ta'sirlanadi va rohatlanadi. Shuningdek mubolag'aning g'uluv datajasi Erkin Vohidovning "Sevgi shunday navbahorki" she'rida sevgi tikanni gul qilishi, toshni jonlantirib unga til bag'ishlashi va oddiy qushlarni ham bulbul kabi hrom aylatishini mubolag'ali tasvir orqali juda ham nafis va bo'rttirib tasvirlanganki, o'quvchini beihitoy o'ziga jalb qila oladi:

*Sevgi shunday navbahorki,  
U tikandin gul qilur,  
Toshga jonu til bag'ishlab,  
Zog'ni ham bulbul qilur. [2;344.]*

Mubolag'a so'z ma'nosini oshirib, bo'rttirib ko'rsatuvchi stilistik vosita hisoblanadi. U asarning ekspressivligini oshirib o'quvchini o'ziga jalb qilishga, asarning bo'yoqdorligini oshirishga, hayotiy haqiqatlarni badiylashtirib tasvirlashda muhim vazifa bajaradi. Professor Abdurauf Fitrat aytganidek, mubolag'a chin (samimiy) bo'lsa, judayam oshirib yuborilmasa, zo'raki bo'lmasa, yasamalikdan uzoq bo'lsa, tug'ulardagi kuchlilik - o'tkirlikni anglashga katta yordam beradi.[2;344] Shu jumladan, I.S.Turgenev fikricha "G'ayritabiiy ko'ringan hodisalar haqiqiy hayotning mohiyatini haqqoniyroq aks ettira oladilar." [1;141.] Shuning uchun mubolag'adan foydalanilganda u haqiqatga qaydarajada mos kelishiga ahamiyat berish lozim. Aks holda mubolag'a badiiy bo'yoq berish o'rniga o'quvchini chalg'itishi, aldashi yoki ishonchsizlik uyg'otishi mumkin.

**XULOSA**

Til stilistikasining qamrovi keng bo'lib, u tilning barcha stilistik sistemasini tekshiradi. Stilistika tilning sistem tizimidan tashqari, tilning yozma va og'zaki shakllarini shuningdek adabiy va so'zlashuv nutqini ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari stilistika til vositalarining to'g'ri tanlangan yoki tanlanmaganligini aniqlash, shu bilan birga ularni to'g'ri qo'llash yo'llarini ham belgilab beradi. Mubolag'a stilistik vosita bo'lib, odatda u tinglovchini gapirilayotgan vaziyatga e'tiborini tortish va uning mazmun-mohiyatini o'ta bo'rttirib ko'rsatish uchun ishlatiladi. Badiiy adabiyotda muallif tildagi tayyor oddiy birikmalarni ishlatish o'rniga, o'zining betakror mubolag'asini yaratishga harakat qiladi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
3. Jamol Kamol. Lirik she'riyat. – Toshkent: Fan, 1986.
4. Karimova F. Navoiy debochalarida badiiy tasvir vositalari/ O'zbek tili va adabiyoti, 4-son, 2014 – B 144.
5. Hojiahmedov A. She'riy san'atlar va mumtoz qofiya. – Toshkent: Sharq, 1998.
6. Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
7. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.
8. Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1970.
9. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.